

ILK VA MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALAR RIVOJLANISHIGA QO'YILADIGAN DAVLAT TALABLARI ASOSIDA TA'LIM JARAYONINI MODELASHTIRISHDA DIREKTORNING OLIB BORADIGAN FAOLIYATI

Menejerlik o'quv kursini tinglovchisi
Murtazayeva Mashxura Norboyevna

KIRISH

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi inson hayotining eng muhim va mas'uliyatli bosqichlaridan biri hisoblanadi, chunki aynan shu davrda shaxsning intellektual, jismoniy va ijtimoiy-psixologik asoslari shakllanadi. Shu bois maktabgacha ta'lim tizimini davlat talablari asosida tashkil etish, bolalarning har tomonlama barkamol rivojlanishini ta'minlashda ustuvor vazifa sifatida qaraladi. Davlat tomonidan belgilangan standartlar bolalarning yosh xususiyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan bo'lib, ular ta'lim jarayonining mazmuni va sifatiga aniq talablar qo'yadi. Ta'lim jarayonini modellashtirish esa ushbu talablarni amaliyotga samarali tatbiq etishning ilmiy asoslangan yondashuvi bo'lib, u pedagogik jarayonni tizimli, izchil va natijaga yo'naltirilgan tarzda tashkil etishga xizmat qiladi. Mazkur jarayonda maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining boshqaruv faoliyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Direktor nafaqat ma'muriy rahbar, balki pedagogik jarayonni strategik rejalashtiruvchi va rivojlantiruvchi yetakchi sifatida namoyon bo'ladi.

Direktor davlat talablari asosida ta'lim mazmunini shakllantirish, o'quv-tarbiya jarayonini samarali modellashtirish, pedagoglar faoliyatini muvofiqlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etishda muhim rol o'ynaydi. U ta'lim jarayonining sifatini monitoring qilish, tahlil etish hamda natijalar asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish orqali tizimning uzluksiz rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, direktor pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini oshirish, metodik xizmatni takomillashtirish va sog'lom ta'lim muhitini yaratishga mas'uldir.

Mavzuning dolzarbligi

Maktabgacha ta'lim tizimi bolalarning har tomonlama rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Shu sababli ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari asosida ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining roli katta bo'lib, u ta'lim jarayonini samarali modellashtirish, pedagogik jamoani boshqarish va sifatli ta'lim muhitini yaratishga mas'uldir. Amaliyotda esa ba'zan ta'lim jarayonini rejalashtirish va davlat talablari asosida tashkil etishda kamchiliklar uchrab turadi. Shu bois direktor faoliyatini takomillashtirish va ta'lim jarayonini samarali modellashtirish masalasi dolzarb hisoblanadi.

Mavzuning maqsadi va vazifalari

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari asosida ta'lim jarayonini modellashtirishning nazariy va amaliy asoslarini o'rganish hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining ushbu jarayondagi boshqaruv faoliyatini takomillashtirish bo'yicha samarali taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Mavzuning vazifalari

1. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarining mazmuni hamda ta'lim jarayonini modellashtirishning nazariy asoslarini tahlil qilish.
2. Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining ta'lim jarayonini modellashtirishdagi boshqaruv faoliyati, funksiyalari va amaliy ish tajribasini o'rganish.
3. Ta'lim jarayonini davlat talablari asosida samarali tashkil etish uchun direktor faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlil etilganligi

/r	Adabiyot nomi, muallif, nashriyoti va ishlab chiqarish yili	Adabiyot haqida qisqacha ma'lumot
	Grosheva I.V., S.Pak, Maxmudova D.T. va boshqalar. Ilk qadam davlat o'quv dasturi. Grosheva I.V va boshqalar. Nashr yili: Takomillashtirilgan nashri. 2022 yil	Dastur maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning ijtimoiy, jismoniy, nutqiy va intellektual rivojini ta'minlash hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini zamonaviy pedagogik yondashuvlarini belgilaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etishni belgilaydi.
	Grosheva I.V., Olimov K.T., Nazarova V.A, va boshqalar "Kuzatish va baholash". T.2020-y.	Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarni innovatsiyasini shakillantirish bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarni innovatsion jarayonlarini anglash, kasbiy motivatsiyani shakillantirishga oid xorijiy tajribalar hamda bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning amaldagi holati tizimli tahlil etiladi.
	N.Yunusova. Ilk va mmaktabgacha yoshdagi boalarga qo'yiladigan davlat talablari asoslari. Uzbek Scholar Journal Volume- 14, Mar.2023 y	Ilk va maktabgacha yoshli bolalarga qoyilgan davlat talablarining asoslari va boshqaruvh usullari keltirilgan.

Mavzuga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar

	Me'yoriy-huquqiy asos	Ushbu hujjatning mavzu yuzasidan tahlili
	O'zbekiston Respublikasi Qonuni, "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida. 16.12.2019 y. O'RQ 595-son	Maktabgacha yoshdagi bolalarni sifatli ta'lim va tarbiya bilan ta'minlash, ularning rivojlanishi va ijtimoiy moslashuvini kafolatlashni nazarda tutadi.9-bob. Maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish va uning faoliyatini tashkil etish tartibi.(48-49-50-51-moddalar)
	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son qarori. LEX.UZ	Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti (keyingi o'rinlarda — davlat standarti) davlat standartining maqsadi va asosiy vazifalarini, prinsiplarini, tarkibiy qismlarini, davlat standartlarini joriy etish hamda uning talablariga rioya etilishini nazorat qilish tartibini belgilaydi.1-ilovalar. Umumiy qoidalar.Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari kiritilgan.
	"Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Prezident Farmoni 30.09.2024y .PF-152-son . LEXS.UZ	27-bulim. Maktabgacha ta'lim tashkiloti "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga va boshqa qonunchilikka muvofiq ta'lim berish va tarbiyalash shakllari, vositalari va usullarini tanlaydi.

Mavzuning qiyosiy tahlil etilganligi.

O'ZBEKISTON tajribasi

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi shaxs kamolotining muhim bosqichi bo'lib, bu davrda ularning intellektual, jismoniy va ijtimoiy asoslari shakllanadi. Shu sababli maktabgacha ta'limni davlat talablari asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda bu yo'nalishda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilib, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va "Ilk qadam" o'quv dasturi asosida ta'lim jarayoni yo'lga qo'yilgan.Ta'lim jarayonini modellashtirish davlat talablarini samarali amalga oshirishning muhim vositasi bo'lib, unda direktorning o'ri beqiyosdir. Direktor ta'lim jarayonini rejalashtiradi, pedagoglar faoliyatini muvofiqlashtiradi va ta'lim sifatini nazorat qiladi.

Italiya tajribasi.

Italiyada maktabgacha ta'lim tizimi, xususan Reggio Emilia yondashuvi asosida tashkil etilib, unda bolaga erkin va faol o'rganuvchi shaxs sifatida yondashiladi.Ta'lim jarayoni

bolalarning qiziqishlari va ehtiyojlariga mos ravishda modellashtiriladi. Bu jarayonda direktor ta'lim muhitini tashkil etish, pedagoglar faoliyatini muvofiqlashtirish va ta'lim sifatini nazorat qilishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu tajriba shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda direktorning boshqaruv va pedagogik faoliyati hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Finlyandiya tajribasi

Finlandiyada maktabgacha ta'lim tizimi bilan dunyoda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Bu yerda ta'lim jarayoni bolaga yo'naltirilgan bo'lib, o'yin orqali o'qitish, erkin muhit va individual yondashuv ustuvor hisoblanadi. Direktor pedagoglarga katta erkinlik beradi, ta'lim muhitini qulay tashkil etadi va bolalarning tabiiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi. Boshqaruv jarayonida ishonch va hamkorlik muhim o'rin tutadi.

Yaponiya tajribasi

Yaponiya maktabgacha ta'lim tizimi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalar va intizomni shakllantirishga katta e'tibor beradi. Ta'lim jarayonida jamoaviy faoliyat va tartib-intizom ustuvor hisoblanadi. Direktor ta'lim jarayonini aniq rejalashtiradi va kun tartibiga qat'iy amal qilinishini ta'minlaydi. Bolalarda mustaqillik va o'z-o'ziga xizmat qilish ko'nikmalari rivojlantiriladi. Pedagoglar faoliyati muntazam tahlil qilinadi. Direktorning boshqaruvi tartib, tizimlilik va jamoaviylikka asoslanadi.

MAVZUGA OID MUAMMOLAR.

1. Davlat talablari asosida ta'lim jarayonini modellashtirishda metodik yondashuvlarning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi.
2. Direktorlarning zamonaviy boshqaruv va pedagogik kompetensiyalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi.
3. Ta'lim jarayonini tashkil etishda davlat talablari bilan amaliyot o'rtasida tafovut mavjudligi.

Mavzuning ijobiy va ijodiy yoritilganligi

Maktabgacha ta'lim — bolalarning umumiy rivojlanishi, keyingi ta'lim bosqichlariga tayyorlanishi va jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun poydevor bo'lib xizmat qiluvchi muhim ta'lim bosqichidir. Bu davrda bolaning aqliy, jismoniy, ijtimoiy, hissiy va madaniy rivojlanishi uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratilishi zarur. Davlat tomonidan maktabgacha ta'lim uchun belgilangan talablar (standartlar) — ta'lim sifatini ta'minlash, pedagogik jarayonni tartibga solish, resurslar va muhitni me'yorlash hamda bolalar uchun xavfsiz va sog'lom ta'lim muhitini yaratishga qaratilgan qonuniy, metodik va tashkiliy hujjatlardir.

2020-yilda joriy etilgan "Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishga qo'yiladigan davlat talablari" (DTS 001:2020) orqali ta'lim sifatining yagona mezonlari belgilanib, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati uchun asosiy standartlar ishlab chiqildi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagoglarning malakasini oshirish bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yildi. Pedagogik jarayonlarni monitoring qilish, bolalarning rivojlanishini baholash uchun yagona metodikalar joriy etilmoqda.

Chora-tadbirlar rejasi

	Ko'riladigan masala	Mas'ul xodim	Muddat
	Davlat talablari va mavjud resurslardan foydalanib, pedagogik yondashuvlarni tatbiq etish.	Direktor, direktor o'rinbosari.	2026-yil aprel davomida
	Zamonaviy boshqaruv va pedagogik yondashuvlar bo'yicha malaka oshirish kurslari va treninglar o'tkazish.	Direktor, direktor o'rinbosari guruh tarbiyachilari.	2026-yil may har har oyda
	Ota-onalar bilan uzviy hamkorlikni yo'lga qo'yish.	Direktor, direktor o'rinbosari	2026-yil aprel har har chorakda
	Monitoring va baholash tizimi-ta'lim sifatini kuzatish va samaradorlikni oshirish uchun raqamli vositalarni joriy etish.	Direktor o'rinbosari, pedagoglar	2026-yil iyun

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'limda ta'lim jarayonini davlat talablari asosida modellashtirish va direktor faoliyatini strategik yondashuvlar bilan tashkil etish bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro va mahalliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, tizimli rejalashtirish, zamonaviy boshqaruv kompetensiyalari hamda uzluksiz monitoring ta'lim sifatini oshiradi. Shu bilan birga, pedagoglar va direktorlar samarali faoliyat olib borib, har bir bolaning ehtiyojiga moslashgan individual va innovatsion ta'lim muhitini yaratadilar. Natijada, ta'lim jarayoni davlat talablari bilan uyg'unlashib, bolalarning kognitiv, ijtimoiy va ijodiy salohiyati yuqori darajada rivojlanadi.

Takliflar

1. Ta'lim jarayonini amaliy tavsiyalar asosida tashkil etish. Davlat talablari asosida mavjud dastur va resurslardan foydalangan holda ta'lim jarayonini rejalashtirish va modellashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.
2. Direktorlarning kompetensiyasini oshirish. Zamonaviy boshqaruv va pedagogik yondashuvlar bo'yicha malaka oshirish kurslari va treninglar tashkil etish.
3. Davlat talablari va amaliyot o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash. Ta'lim jarayonini monitoring qilish va amaliyot bilan davlat talablarini muvofiqlashtirish orqali uzviylikni ta'minlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA ELEKTRON MANBALAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16.12.2019 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" 2020-yil 22-dekabrda 802-son qarori.
3. "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Prezident Farmoni 30.09.2024 y., PF-152-son
4. Grosheva I.V., S.Pak, Maxmudova D.T. va boshqalar. Ilk qadam davlat o'quv dasturi. Grosheva I.V va boshqalar. Nashr yili: 2022 yil Takomillashtirilgan nashri.
5. Grosheva I.V., Olimov K.T., Nazarova V.A va boshqalar. "Kuzatish va baholash". T.2020-y.
6. N.Yunusova. Ilk va mmaktabgacha yoshidagi boalarga qo'yiladigan davlat talablari asoslari. Uzbek Scholar Journal

ELEKTRON MANBALAR:

lex.uz
aniq.uz
inlibrary.uz